

## BOLALARDA IJTIMOYILASHUV

Rustamova Xolidaxon Baxtiyor qizi  
O'zbekiston Milliy Universiteti 3-kurs talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqola bolaning tug'ilganidan so'ng individ sifatidan shaxs sifatida shakllanishidagi ya'ni ijtimoiylashuvdagi turli xil o'zgarishlarni ochishga va bolani ijtimoiylashuvining yengil o'tish choralari haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Individ, mustaqil organizm, metobalizm, katabalizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, adaptatsiya, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, chaqaloqlik davri, erta bolalik davri, maktabgacha yosh davri, boshlang'ich maktab yosh davri, o'smirlik davri, katta maktab yoshi davri, " ovqatga yo'nalish " , emotsional munosabat.

Har bir inson tug'ilibdi-ki individ hisoblanadi. Aynan individ o'zi nima ? Bunga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, individ - bu alohida , mustaqil holda mavjud bo'lgan organizm hisoblanadi. Mustaqil organizm nima deyidigan bo'lsak , o'zi oziqlana oladigan , harakatlana oladigan va hayot kechira oladigan tirik organizm. Aynan inson tug'ilganidan so'ng unda tirik organizm sifatida metabolizm , katabalizm , assimilyatsiya va dissimilyatsiya , rivojlanish , o'sish jarayonlari boshlanadi. Bu jarayonlarga alohidadan to'xtaladigan bo'lsak , metabolizm - bu organizmda yuzaga keladigan kimyoviy reaksiyalar to'plami . Katabolizm - bu oksidlanish reaksiyalari orqali hujayra ichida amalga oshiriladigan murakkab organik birikmalarning fermentativ parchalanishi , anabalizm esa murakkab organik birikmalar – oqsillar, nuklein kislotalar, polisaxaridlar-hujayraga atrof-muhitdan kiradigan yoki katabolizm jarayonida hosil bo'lgan oddiy prekursorlardan sintez jarayoni hisoblanadi. Xuddi shu jarayonlar insonda normal kechadigan bo'lsa , uning o'sishi ham rivojlanishi ham normal kechadi.

Inson hayoti davomida turli muhitlarda yashaydi. Aynan o'sha muhitga qanchalik tez ko'nikishi undagi adaptatsiya jarayoniga bog'liq hisoblanadi. Adaptatsiya jarayoni o'zi nima ? Adaptatsiya - tananing, uning organlari va hujayralarining tuzilishi va funksiyalarini atrof-muhit sharoitlariga moslashtirish. Mana shu adaptatsiya jarayoni orqali biz ma'lum bir do'stlar davrasiga , bog'chaga , maktabga , oliy o'quv yurtlari va boshqa bir oilaga, issiqqa , sovuqqa yoki namlikka moslashamiz. Inson



tug'ilganidan so'ng avval ota-onasi , buvi-bobosi , aka-singil va boshqa yaqinlari orasiga kirib boradi , aloqa munosabatga kirishadi. Yanayam ulg'aygani sari esa tengqurlari qatoriga bog'cha , maktab kabi jamoaviy guruhlariga kirishib boradi bir so'z bilan aytganda atrofidagi ijtimoiy muhitga aralashadi. Ijtimoiy muhit - insonning yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar. Inson ijtimoiy muhitga kirib borar ekan albatta , o'sha muhitga qarab ijtimoiylashib boradi , ya'ni , ijtimoiy tajribani egallab, hayot va faoliyat jarayonida uni faol tarzda qo'llab boradi. Qani o'ylab ko'raylikchi bola tug'ilganidan so'ng dastlabki tajribalarni nimalardan o'zlashtiradi ? Albatta biz bilamizki , har bir individ tug'ilganida ma'lum shartsiz reflekslar bilan tug'iladi. Unday bo'lsa shartli reflekslar? Albatta hayot davomida orttirib boriladi. Bunda uning atrofidagi tashqi muhitning roli katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham uning atrofidagilar xususan, ota-onasi uning ijtimoiylashuvida aynan nimalar to'g'ri-yu , aynan nimalar noto'g'ri ekanligini bilishlari lozimdir. Ijtimoiylashuv - bu ijtimoiy moslashuvchanlik jarayoni, bu yerda odamlar o'rganishlari va o'zlashtirishlari kerak bo'lgan qoidalar va qadriyatlar asosida birgalikda yashashlari kerak.

Olimlar o'z tadqiqotlari , g'oyalaridan kelib chiqib inson umrini turlicha davriylashtirishgan. Shunday olimlardan biri D.V. Elkonin hisoblanadi. U bolaning tug'ilishidan to yetuklik davrigacha bo'lgan davrini 6 ta bosqichga bo'lib chiqqan. Aynan, u bolani atrofidagi dunyoni - obyektlar va insoniy munosabatlar dunyosini , shu jumladan uni ikki munosabatlar tizimida faol ravishda o'rganadigan yaxlit shaxs sifatida ko'radi.

1. Chaqaloqlik davri. Bola tug'ilganidan 1 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yetakchi faoliyat to'g'ridan-to'g'ri hissiy aloqa hisoblanadi.
2. Erta bolalik davri. 1-3 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yetakchi faoliyat obyekt va quoldir.
3. Maktabgacha yosh davri. 3-7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yetakchi faoliyati rolli o'yinlar hisoblanadi.
4. Boshlang'ich maktab yoshi davri. 7-11 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yetakchi faoliyati boshlang'ich ta'limni egallash.
5. O'smirlik davri. 11-15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yetakchi faoliyati ijtimoiy foydali faoliyat tizimidagi aloqa hisoblanadi.
6. Katta maktab yoshi davri. 15-17 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yetakchi faoliyat o'quv va kasbiy faoliyat hisoblanadi.



Yuqorida aytib o'tilganidek bola tug'ilganida ma'lum shartsiz reflekslar bilan tug'iladi. Bulardan biri bu so'rish refleksi hisoblanadi. Chaqaloqning labiga va tilining shilimshiq pardasiga biror qo'zg'atuvchi tegishi bilan unda ixtiyorsiz ravishda so'lak ajrala boshlaydi. Aynan chaqaloq oziqlanish paytida uning boshqa har qanday harakatlari sekinlashadi yoki mutlaqo to'xtaydi. Psixologlar M.P. Denisova va N.I.Figurinlar chaqaloqdagi mazkur jarayonni chuqur tadqiq qilib " ovqatga yo'nalish " reaksiyasi deb atadilar.

Bola tug'ilganidan go'yoki uni loyga qiyoslasak bõladi. Aynan mana shu loydan nimani yasash, nimani singdirish uning ota-onasiga bog'liq hisoblanadi. Bola tarbiyasi shuning uchun ham juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Avvalo bolaning shakllanishida eng birinchi òrinda uning oilasi turadi. Oiladagi muhit, ota-onasining unga bõlgan munosabati, ota-onasining bir-biriga bo'lgan munosabati yoki aka-uka, opa-singilisining unga bo'lgan munosabati bolaning psixikasiga, xarakter tipiga, o'qish-o'zlashtirishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham bolaning shakllanib kelishining dastlabki davrlarida bu narsalarga ko'proq e'tibor bermoq lozim. Agarda bolaga ayrim oila a'zolari tomonidan noto'g'ri munosabat bildirilsa, masalan, bolani arziyas narsalarga ham koyiladigan yoki uriladigan bo'lsa, u keyinchalik o'z fikrini ochiq aytishga qo'rqish, jamoat ichida o'zini ko'rsatishdan cho'chiydigan bo'lish ehtimoli katta. Yoki bolani fikrini eshitmaslik, unga biron yumushni ishonmaslik bolaning mustaqil o'z fikriga ega bo'lmasligiga yoki bolani mustaqil biron yumushni bajara olmasligiga sabab bo'lib qolishi mumkin bo'ladi. Albatta, bu esa bolaning o'quv faoliyatida , ijtimoiy muhit bilan bo'lgan munosabatlarida turli xil muammolarga sabab bo'lishi ham mumkin bo'ladi. Aynan bolaning go'daklik davri to'liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oyligidan boshlab, bola o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib , bola psixik taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Kattalarning doimiy bola bilan birga bo'lishlari bolaning doimiy ravishda kattalar diqqatida bo'lishi uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga sabab bo'lishi mumkin. Kattalar bilan amalga oshiriladigan barcha xatti-haratakalar bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bõladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir tug'ilgan bola misoli bir oq qog'oz, albatta , bolaning rivojlanishida uning genetikasi bilan birga uni qurshab turgan olam ,



atrofidagi insonlar ta'siri juda katta. Shu sababli ham bola shakllanishida unga tòg'ri muhit yaratib berish va yo'nalish berish lozim bo'ladi. Albatta, buning uchun nafaqat uning ota-onasi balki u bilan doimiy muloqotda bo'ladigan o'qituvchisi, tarbiyachisi va albatta psixologlarimiz o'rnini kattadir. Aynan psixolog sifatida yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda bolaning turli yoshida turli o'zgarishlarga, yetakchi qiziquvchi faoliyatlariga va albatta, individual xususiyatlariga qarab munosabatda bo'lishimiz bolaning komil shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Albatta har bir ota-ona, o'qituvchi yoki tarbiyachi yoki psixolog o'z zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his etgan holda o'z vazifalarini bajarishlari yurt kelajagi uchun qo'shgan muhim hissalarini bo'la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. T., 2010
2. Do'stmuxammedova Sh., Nishonova Z., Jalilova S. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya. T., 2013
3. Masaru Ibuka. Uchdan keyin kech. T., 2019
4. [www.studfile.net](http://www.studfile.net)- elektron sayti.